



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 08 | pp. 75-77 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MOLIYAVIY AUDIT JARAYONLARIDA KORRUPSION HOLATLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH



*Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich*

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada moliyaviy audit jarayonlarida korrupsion holatlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha auditning rolini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy audit, korrupsiya, firibgarlik, davlat sektori, oliy audit organlarining xalqaro standartlari, iqtisodiy tovlamachilik

#### **Kirish.**

Demokratik jamiyat qurish, aholi turmush darajasini yaxshilash, iqtisodiyotni barqarorlashtirish kabi yo'llar orqali jamiyatni farovonligini ta'minlash masalasi har qanday mamlakatning eng ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatlar ustuvor maqsadlariga erishish yo'lida bir qancha strategiyalar va mazkur strategiyadan kelib chiqqan holda chora-tadbirlar, yo'l xaritalari ishlab chiqishadi va unda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilashadi.

Biroq ko'zlangan maqsadlarga erishishda to'siq bo'ladigan bir qancha sabab va omillarni sanab o'tishimiz mumkin bo'ladi va mazkur sabab va omillarni ta'sirini e'tibordan chetda qoldirmasdan uni to'g'ri baholay olishimiz lozim bo'ladi.

Xususan mazkur to'siq bo'ladigan omillar ichida eng xavfisi bu korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar hisoblanadi. Asrlar davomida korrupsiya illati mamlakatlarni, butun jamiyatni tanazzulga yuz tutishida sabab bo'lувchi omil sifatida qarab kelingan.

Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya (lot. Corrumpere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Korrupsiya umuman olganda chegara bilmas jinoyatlar tarkibiga kirib, u hudud, tarmoq, soha tanlamaydi, qisqacha aytganda har qanday faoliyatda mavjud bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Quyida biz iqtisodiy yondashgan holda korruption jinyotlar to'g'risida iqtisodchi olimlarning buxgalteriya va audit tizimida mavjud bo'lgan ta'rif va tavsiflarini ko'rib o'tmoqchimiz.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Buxgalterlar tomonidan qo'llaniladigan ta'riflar odatda xulq-atvorga yo'naltirilgan deb ataydi: korruptsiya shaxsiy manfaatlar uchun davlat lavozimini, vakolatlarini yoki resurslarini suiiste'mol qilishdir. (Johnston 1996 )

Yangi davlat boshqaruvi kabi zamonaviy boshqaruv dasturlari moslashuvchan va sezgir tashkilotlarni yaratish uchun ierarxik tuzilma va byurokratiyaga emas, balki ixtiyorilikka tayanadi. Biroq boshqaruvning ixtiyoriy diskretsiyasi ham korruptsiya uchun imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. (Power 1997)

Korruptsiyaning ayrim turlari suiiste'mollik ta'rifiiga to'g'ri kelishi mumkin va ba'zi holatlarda davlat sektori auditorlari korruptsiyani aniqlash ma'sul bo'ladi qaysiki oliy audit organlarining xalqaro standartlariga muvofiq amalga oshiriladimi yoki yo'qmi. (Liu.J va Liu.B 2012)

Auditorlar odatda moddiy firibgarlikni aniqlash zarur deb hisoblashsada, biroq ular korruptsiya tushuncahsini firibgarlik tushunchasi bilan bog'lashni istamaydilar. (Eilifsen va boshqalar 2001)

Boshqacha qilib aytganda, muhimlilik darajasi auditorlar tomonidan

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda induksiya, deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, guruhash, eksperiment, adaptiv usullar, integratsion yondashuvlar, buxgalteriya hisobi tizimida korruption holatlar bo'yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Darhaqiqat korrupsiya iqtisodiyotninh tomiriga bolta uruvchi yomon illat bo'lib, u bilan kurashishda auditorlar muhim rol o'ynaydi.

ISA 250 (qayta ko'rib chiqilgan) va IFAC axloq kodekslarida korruption to'g'risida quyidagi "korrupsiya bu mijozning qonunlar va qoidalarga rioxaliga qilmasligi, rioxaliga qilmaslik auditorni vaziyatni tushunishga, rahbariyat bilan masalani muhokama qilishga va shu muhokama asosida keyingi chora-tadbirlar zarurligini baholashga olib kelishi kerak. Keyingi harakatlar masalani tegishli organlarga oshkor qilishni o'z ichiga olishi mumkin, bu maxfiylik majburiyatini buzish hisoblanmaydi kabi fikrlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, IFAC korruptionsi firibgarlik emas, balki qonunlarga rioxaliga qilmaslik deb hisoblaydi, bu esa o'z navbatida tegishli organlar tomonidan tekshirishi kerak bo'lgan masala va biznesdag'i buxgalterlar uchun axloqiy masala hisoblanadi.

FIFA sodir bo'lgan korruption voqe'a va hodisalar korruption holatlarini aniqlab o'z vaqtida tegishli idorlarga xabar qilinmaganligi sababli yuzaga kelganligi, mazkur jarayonlar bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va standartlarni ishlab chiqilmaganligi natijasi bilan bog'lashimiz mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki korruption jinoyati bu oddiy jinoyat hisoblanmasdan balki oqibati juda og'ir bo'lgan jinoyatlar sarasiga kiradi.

Hozirgi kunda davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasida amalga oshirilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar sohlarida juda ko'plab korruption holatlarning mavjudligi hech kimga sir emas va bu esa o'z navabatida auditorlarga juda katta ma'suliyatni yuklaydi.

Quyida keltirilgan rasmda korrupsiyanı keltirib chiqaruvchi holatlar tasvirlangan.(1-rasm)

**Poraxo'rlik.** Poraxo'rlik bu hisobvaraq-fakturani qaytarib olish (odatiy holat yetkazib beruvchi buyurtmani olish uchun xaridlar bo'limida kimgadir pora berishi) va tenderda soxtalashtirish, bular afzal sotuvchining g'alaba qozonishini ta'minlash uchun tanlov savdolari jarayonini manipulyatsiya qilishga urinishlar jarayonidir.

**Xaridlar bilan bog'liq korrupsiya.** Bunda kimdir o'zi manfaatdor bo'lgan kompaniyadan oshirilgan narxlarda xaridlarni amalga oshirganda, odatda xaridlar funktsiyasida paydo bo'ladijan manfaatlar to'qnashushi natijasida yuzaga keladigan korruption holat.

**Qimmatbaho sovg'alar.** Kompaniya siyosatini buzgan holda buyurtma yoki shunga o'xshash to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan sotuvchidan sovg'a olgan xodimlarni tashkil etuvchi noqonuniy sovg'alar

**Iqtisodiy tovlamachilik.** Bu ham korruption holat bo'lib, bunda xodim buyurtma berganlik uchun sotuvchidan qaytarib olish yoki kredit, ruxsatnoma yoki shunga o'xshash imtiyozlar berishni talab qilish orqali korrupsiyanı qo'zg'atadi.

### 1-rasm. Korrupsiyanı keltirib chiqaruvchi holatlar

#### Xulosa va takliflar

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'rif va fikrlardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobi tizimi orqali ko'plab korruption holatlar amalga oshirilib, mazkur holatlarni moliyaviy audit jarayonlarida aniqlash va bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni alohida qayd etib o'tmoqchimanki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar jarayonida audit tizimini korrupsiyanı oldini olish va aniqlash bo'yicha muhim bir bo'g'in sifatida qarash va u bo'yicha tegishli me'yoriy huquqiy hujjatlarda ishlab chiqish yoki mavjudlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/ Literatura/Reference:

1. ISA 250 (Revised): Consideration of Laws and Regulations in an Audit of Financial Statements. The standard was revised in October 2016
2. Johnston, M. (1996). The search for definitions: the vitality of politics and the issue of corruption, International Social Science Journal, 48(149), 321-335.
3. Power, M. (1997). The Audit Society: Rituals of Verification, Oxford: Oxford University Press
4. Liu, J., Lin, B. (2012). Government auditing and corruption control: evidence from China's provincial panel data, China Journal of Accounting Research, 5(2), 163-186.
5. Eilifsen, A., Messier, W.F., Glover, S.M., Prawitt, D.F. (2014). Auditing and Assurance Services, 3rd international ed., London: McGraw-Hill

